TA’LIMDA PEDAGOGIK KVALIMETRIYA METODLARINING QO‘LLANILISHI.

Yarlakabov Umirzoq Mamatqulovich
Sambhram universiteti dotsenti,
Fayziqulov Muhammad Normurot o'g'li
Sambhram universiteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya

Ta’lim jarayonida pedagogik kvalimetriya, pedagogik faoliyatda tahsil oluvchilarning ta’lim muassasalarida fanlar bo‘yicha DTS bilan me’yorlangan talablar asosida bilim, ko‘nikma, malakalar va kompetensiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari, ularning ehtiyojlari va o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash va olingan natijalarga muvofiq ularga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar.

Kalit so‘zlar: Kvalimetriya, Pedagogik kvalimetriya, oliy ta’lim muassasalari,ta’lim.

Аннотация

Педагогическая квалиметрия в образовательном процессе, определение возможностей приобретения знаний, умений, умений и компетенций, их потребности и уровня освоения обучающимися в образовательных учреждениях на основе требований, предъявляемых ДТС к предметам. реализация к ним индивидуального подхода в соответствии с результатами.

Ключевые слова: Квалиметрия, Педагогическая квалиметрия, высшие учебные заведения, образование.

Annotation

Pedagogical qualimetry in the educational process, determination of opportunities for acquiring knowledge, skills, abilities and competencies, their needs and the level of mastery by students in educational institutions based on the requirements for DTS subjects. implementation of an individual approach to them in accordance with the results.

Key words: Qualimetry, Pedagogical qualimetry, higher education institutions, education.

Pedagogik kvalimetriya o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o‘rin tutadi. Kvalimetriya — tabiatdagi barcha obyektlarning va jamiyatda sodir bo‘ladigan jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini baholash muammolari hamda metodologiyasini o‘rganuvchi fan. U lotincha “quails” - sifat, qadimiy yunoncha “metros” - o‘lchov degan ma’noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini baholash metodlarini o‘zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog‘idir.

Pedagogik kvalimetriya bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarlik darajasining malaka talablariga mosligi, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan muallimlarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikma va malakalari, kasbiy kompetensiyasi(layoqati)ning DTSga mosligi, oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan, mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati, o‘quv rejadan o‘rin olgan kurslarning moddiy va didaktik ta’minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

Pedagogik o‘lchov metodlari va uning ahamiyati. Pedagog kadrlarning o‘z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o‘z-o‘zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi: ekspertiza metodi, tahlil metodi, pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, test topshiriqlari, suhbat metodi, matematik-statistik tahlil qilish va umumlashtirish. Ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiallari o‘zlashtirilganligini, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligini tekshirish va baholash ta’lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o‘qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o‘quv jarayonining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Pedagogik (baholash) o‘lchov – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari:

• “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat dasturlari, Prezident farmoni, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish;

• oliy ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me’yoriy hujjatlari va reyting tizimini ishlab chiqish;

• oliy ta’lim muassasalari tarkibidagi kafedralarning ilmiy salohiyati, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash;

• professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, o‘qitiladigan kurslarning moddiy-texnik, o‘quv-metodik majmualarning sifatini aniqlash. Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagog kadrlarni suhbatdan o‘tkazish, o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazish, ekspertizadan o‘tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

Pedagogik kvalimetriya jarayonini qo‘llashda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

-Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etish;

-Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etish.

Pedagogik kvalimetrik jarayonning deduktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etilishiga oliy ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin. Keyingi yillarda ilg’or o’qituvchilar tajribasida didaktik o’yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o’yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o’quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni Og’zaki bayon etish, ko’rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo’llaniladi. Pedagogik kvalimetrik jarayonning induktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etilishi sirasiga pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o‘z-o‘zini baholash jarayoni kiradi. Bu jarayonda o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish maqsadida ularning pedagogik faoliyati tahlil etiladi. Tanlovdan tanlovgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy ishlari, ilmiy, ilmiy-metodik sohada olib borilgan izlanishlari, chop etilgan ilmiy ishlari, mas’ul bo‘lgan o‘quv kursi bo‘yicha tayyorlangan o‘quv-metodik majmuaning maqsadga muvofiqligi tekshiruvlardandan o‘tkaziladi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan ya’ni nostadart test topshiriqlaridan foydalanish ta’lim samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. V.A. Artemov Psychology of teaching a foreign language. - M.: "Pedagogy", 1989.

2. I.L. Bim Some actual problems of carpet training in foreign languages.- Yaish. 2001.

3. U.Q. Yoralieva Features of teaching foreign languages in the preschool education system and the possibility of using interactive methods in it. Journal of Modern Education. -T., 2014, No. 9.-27 P.

4. R.R. Jabbarov (2016) psychological foundations of the perception of detachment. The organization of innovative activities of the teachers: problems and solutions. pp-444-445.

6. A.A. Hasanov, (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. Theoretical & Applied Science, (9), 15-17.